



MADANIYATLAR ARO FARQLAR VA ULARNING TARJIMA JARAYONIGA TA'SIRI

Ravshanova Zulfiya Rahmatali qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: PhD Muhammedova X.,

Kalit so'zlar: tarjima, madaniyat, madaniyatlararo tafovut, tarjima strategiyalari, madaniy birlik, lingvistik ekvivalent.

Annotatsiya. Ushbu maqolada tarjima faoliyatida madaniyatlararo tafovutlarning o'rni, ularning tarjima sifatiga ta'siri, madaniy birliklarning o'ziga xosligi va ularni tarjima qilishdagi asosiy yondashuvlar ilmiy-nazariy asosda tahlil qilinadi. Amaliy misollar asosida tarjimada uchraydigan madaniy tafovutlar aniqlanadi hamda tarjimada bunday xatolarni oldini olish tushuntiriladi.

Tarjima – nafaqat ikki til, balki ikki millat o'rtasidagi muloqotni tashkil etadigan jarayon bo'lib, har ikki tilning madaniyatini tushunishni talab qiladi. Madaniyat, til bilan birga, har bir xalqqa xos bo'lgan turmush, urf-odatlar, qadriyatlar, dunyoqarash, diniy e'tiqodlar va turmush tarzini o'zida aks ettiradi. Tarjimon, albatta, nafaqat tildagi lug'aviy birliklarni, balki madaniyatlarni ham mukammal bilishi zarur. Sababi madaniyatlararo tafovutlar, ayniqsa, tarjima jarayonida muhim rol o'ynaydi, chunki bu tafovutlar so'zlar, iboralar, nutq uslubi va kommunikativ yondashuvlarga ta'sir ko'rsatadi.

Tarjimada uchraydigan madaniyatlararo tafovutlar bir nechta guruhga bo'linadi. Quyida ulardan ba'zilariga qisqacha to'xtalib o'tamiz:

1. Leksik tafovutlar – bu til birikmalarining boshqa madaniyatlarda mavjud bo'lmagan ma'nolarni o'z ichiga olishi. Masalan, “Thanksgiving” ingliz tilida bayram bo'lib, o'zbek madaniyatida unga to'g'ri keladigan so'z yo'q. Yana biri “Black Friday” – bu jumlagi o'zbek tilida “Chegirmalar kuni” deb izoh berish kerak.
2. Pragmatik tafovutlar – bu turli xalqlarda nutq odatlari, muloqot uslublari va



adabiyotiga doir farqlarni anglatadi. Masalan, ingliz tilidagi “You” soʻzi rasmiy va norasmiy vaziyatlarda ishlatilishi mumkin. Oʻzbek tilida esa “sen” va “siz” soʻzlari mavjud boʻlib, ularning ishlatilishi muloqotning kontekstiga qarab farqlanadi. Rasmiy murojaatlarda “siz” soʻzi qoʻllaniladi.

3. Idiomalar va maxsus iboralar bir madaniyatga xos boʻlgan soʻz birikmalaridir. Masalan, ingliz tilidagi “It’s raining cats and dogs” iborasi soʻzma-soʻz tarjima qilinganda “mushuklar va itlar yogʻayapti” degan maʼnoni beradi. Ammo bu ibora aslida “kuchli yomgʻir yogʻayapti” degan maʼnoni anglatadi.

Tarjimonning madaniy kompetensiyasi uning tilga oid bilimlaridan tashqari, boshqa madaniyatlarni tushunish darajasini ham anglatadi. Tarjimon, tilni oʻrganish bilan birga, oʻzbek va ingliz xalqlari madaniyati oʻrtasidagi farqlarni bilishi lozim. Agar tarjimon madaniy tafovutlarni hisobga olmasa, tarjima yaroqsiz boʻlishi yoki asl maʼnosi oʻzgarib qolishi mumkin. Tarjimonning madaniy bilimi yuqori boʻlsa, u maʼlum bir madaniyatga xos iboralarni toʻgʻri va goʻzal tarzda boshqa tilda aks ettirishi mumkin.

Tarjimada madaniyatlararo tafovutlarni yengib oʻtishning bir necha usullari mavjud:

1. Ekvivalent tanlash – tarjimon maʼlum bir madaniyatga xos iborani boshqa tilga mos keladigan ekvivalent bilan almashtirishi mumkin. Masalan, ingliz tilidagi “fast food” soʻzini oʻzbek tilida “tez tayyorlanadigan ovqat” deb tarjima qilish mumkin.

2. Izohli tarjima – agar tarjimada ekvivalentni topish qiyin boʻlsa, tarjimon izohli tarjima usulidan foydalanadi. Masalan, “Halloween” bayrami oʻzbek madaniyatida mavjud emas, shuning uchun bu iborani izoh bilan tarjima qilish zarur.

3. Transliteratsiya – madaniyatga xos atamalarni fonetik tarzda oʻzbek tiliga oʻzgartirish. Misol uchun, “Sherlock Holmes” nomi inglizcha shaklida saqlanadi, chunki bu nom oʻzbek tilida keng tarqalgan va tanilgan.

Madaniyatlararo tafovutlarning amaliy misollariga toʻxtalsak, quyidagi holatlar koʻrsatilgan boʻlishi mumkin:



- “Black Friday” – ingliz tilida katta chegirmalar kuni sifatida ma’lum bo’lgan bu bayram o‘zbek madaniyatida mavjud emas. Tarjimada “Chegirmalar kuni” deb izohlash zarur.

- “Sherlock Holmes” – bu nomni tarjima qilmasdan, asliyatni saqlab qolish lozim, chunki bu nom ingliz madaniyatining ajralmas qismi hisoblanadi.

- “Ramadan” – bu bizning madaniyatimizga kiritilgan bayram nomi bo’lib, uni tarjima qilmaslik zarur. Shuningdek, bu davrda o‘zbeklar o‘zining diniy an’analarga muvofiq maxsus so‘zlar va iboralardan foydalanadi.

Shu sababli tarjima jarayonida madaniy tafovutlarni faqat aniqlabgina qolmay, balki ularga mos tarzda yondashish zarur bo’ladi. Aynan shunday vaziyatda zamonaviy tarjimon qanday kompetensiyalarga ega bo’lishi kerakligi masalasi dolzarb bo’lib chiqadi.

Globallashuv ta’sirida bugungi kunda tarjima faoliyati yanada keng ko’lamli va murakkab tus olmoqda. Endi tarjima faqat til vositasi bo’lib qolmasdan, turli madaniyatlar orasidagi muloqotni ta’minlaydigan vosita sifatida ham e’tirof etilmoqda. Shu bois tarjimonlar nafaqat lingvistik bilimlarga, balki boshqa xalqlarning turmush tarzi, an’analari, qadriyatlari va ijtimoiy qadriyatlarini tushunish ko‘nikmasiga ham ega bo’lishi lozim. Har bir til o‘z madaniyati, tarixi va xalq ruhiyatini aks ettirgani uchun tarjimon bu omillarni chuqur tahlil qila olishi va ularni tarjimada inobatga olishi kerak.

Bugungi kun tarjimoni ikki til o’rtasida emas, ikki madaniyat o’rtasida vositachilik qiluvchi shaxs sifatida qaralmoqda. Shu sababli tarjimon intermadaniy kompetensiya, ya’ni boshqa madaniyatlarni tushunish, ularga nisbatan sezgirlik bilan yondashish, kontekstual tahlil qilish kabi ko‘nikmalarga ega bo’lishi zarur. Masalan, ingliz tilida keng tarqalgan bir ibora yoki atama o‘zbek tilida mavjud bo’lmasligi mumkin, va uni to‘g‘ri talqin qilish uchun tarjimon shu iboraning madaniy asosini tushunishi kerak bo’ladi. Bunday holatda izohli tarjima, kontekstual tahlil yoki ekvivalent topish kabi usullardan foydalanish tarjimaning sifatini oshiradi.

Xulosa qilib aytsak, madaniyatlararo tafovutlarni hisobga olish tarjima jarayonida muhim ahamiyatga ega. Tarjimon faqat lug‘aviy bilimlarga ega



bo‘lmasdan, balki madaniyatlarni chuqur tushunishi lozim. Madaniy tafovutlarni tahlil qilish va ularni yengib o‘tish usullari orqali tarjimon sifatli va to‘g‘ri tarjima taqdim etishi mumkin. Tarjimonning madaniy kompetensiyasi yuqori bo‘lsa, u xalqaro miqyosda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nida, A. (1964). Toward a Science of Translating. Brill Archive.
2. Baker, M. (2011). In Other Words: A Coursebook on Translation. Routledge.
3. Bassnett, S. (2002). Translation Studies. Routledge.
4. Хожиматов, М. (2017). Tarjima nazariyasi asoslari. Toshkent: O‘qituvchi.
5. <https://www.researchgate.net>